

POVERTY IN UZBEKISTAN, ONGOING REFORMS AND WAYS TO OVERCOME THEM

Mohigul Ochilova

Master, Samarkand State University

Faculty of Human Resource Management

Phone number - +99899 083 54 71

Annotation

This article discusses poverty, economic assistance to the poor in Uzbekistan during the pandemic, the causes of poverty and their solutions.

Kambag`allik dunyoviy hodisa bo`lib, bu dunyoning barcha davlatlarida mavjud. Biroq kambag`allikning o`lchami barcha davlatlarda ham bir xil emas, ya`ni uning o`lchami va holati har xil bo`ladi. Kambag`allik nisbiy mazmunga ega tushuncha hisoblanadi. Aholining ma'lum bir qismi boshqa qismiga nisbatan kambag`al bo`lishi mumkin.

Kambag`allik darajasi iqtisodiyotning umumiy darajasiga teskari mutanosiblikda bo`ladi. Ya`ni iqtisodi kuchli mamlakatlarda kambag`alllik darajasi past bo`lsa, iqtisodiy qoloq davlatlarda kambag`allik darajasi yuqori bo`ladi.

So`ngi yillarda yurtimizda ham kambag`llikni qisqartirish masalasida bir qator amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va Kambag`llikni qisqartirish vazirligi” ning tashkil etilishi buning yaqqol dalilidir.

Vazirlik o`z oldiga kambag`llikni qisqartirish bo`yicha strategiya ishlab chiqish va doimiy monitoring yuritish, xalqaro tashkilotlarning ilmiy tadqiqit muassasalarining hamda mutasaddi tashkilotlar va idoralar bilan birgalikda kambag`allikni qisqartirishga qaratilgan dastur va “yo`l xarita” larini ishlab chiqish, kambag`allikni qisqartirish bo`yicha tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, kambag`llik mezonlarini ishlab chiqish, kambag`allikni qisqartirish bo`yicha normativ huquqiy bazani takomillashtirish, aholining tabaqlashuvini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va tahlil qilish va boshqa vazifalar yuklatildi.

Keyinchalik ijtimoiy ahvoli yaxshilangach 33860 oila temir daftardan chiqarildi, 48545 nafar shaxsning doimiy bandligi ta'minlandi.

2020-yilning dekabr oyida sessiya qarori bilan 6638 oila va 8071ta mehnatga layoqatli ishsizlar temir daftardan chiqarildi. 2021-yil 4-yanvar holatiga ko`ra “Temir daftar” da qolgan oilalarning soni 18117 tani, mehnatga layoqatli ishsizlar soni esa 17913 tani tashkil etmoqda.

Viloyatda jami 75599 ta kambag`al oilalarga “Saxovat va ko`mak” umumxalq harakati tadbiri doirasida 56,6 mldr so`mlik moddiy yordm ko`rsatilgan. Bundan tashqari “Ayollar daftari ham tashkil etilib, unda xotin-xizlarning ijtimoiy ahvoli va oilaviy sharoiti o`rganildi. Unga ko`ra Samarqand viloyatida 540 nafar xotin-qizlarning doimiy ish bilan ta’mindan. 206 nafar xotin-qizlarga 4614,3 mln so`m tadbirkorlik uchun mablag`lar ajratildi. 1930 nafar xotin qizlarga 2507,6 mln so`m moddiy yordam ko`rsatilib, 166 uy joyga muhtoj xotin qizlar uy joy bilan ta’monlandi.

Yuqorida amalga oshirilgan ishlarning barchasi mamlakatimizda kambag`allikning qisqartirilishi va aholi farovonligiga qaratilgan ishlarning amaldagi isboti bo`ldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham 2020-yil 29-dekabrdagi murojaatnomasida kambag`allik masalasiga alohida to`xtalib o`tib, kambag`allikni qisqartirish borasida mutasaddi tashkilotlar oldiga bir qancha talab va taklif kiritdi.

Jumladan:

- “Temir daftar” dagilarni kambag`allikdan chiqarish bo`yicha “motivatsiya ko`nikma va moliyaviy ko`mak” tamoyili asosida yangi mexanizmni joriy etilishi;
- Mahallalarda aholini kasb-hunarga o`qitish bo`yicha mingdan ziyod markazlar tashkil etilishi;
- Dehqonchilik bilan shug`ullanadigan oilalarga yer ajratilishi;
- Aholi bandligini ta’minlash uchun 500 mldr so`m yo`naltirilishini ta’kidladi.

Aholi kambag`alligining kelib chiqish sababi turlicha bo`lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo`lsak, yechimlar ham shunga mos tarzda bo`ladi. Masalan:

- Ishsizlik natijasida kelib chiqsa, uni bartaraf etish uchun yangi ish o`rnlari yaratish,
- Ish haqi pastligi natijasida kelib chiqqan taqdirda, qonu yo`li bilan minimal ish haqini joriy etish,
- Iqtisodiy inqiroz davrida kelib chiqqan kambag`allik uchun, ijtimoiy sug`urtani joriy etish,
- Qarovsizlik, nogironlik va qarilik natijasida kelib chiqqan kambag`allik uchun saxovat va muruvvat uylarini tashkil etish, turli xayr-ehson fondlarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Shuni ta’kidlash joizki kambag`allikni qisqartirish davlatimizning oldida turgan asosiy masalalardan biridir. Kambag`allikni qisqartirish orqali biz yuqori iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashimiz, jinoyatchilikni kamaytirishimiz, demokratik taraqqiy etishimiz va rivojlangan davlatlar qatorida turishimiz mumkin.

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL ONLINE CONFERENCE ON
HUMAN RESOURCES: PROBLEMS, SOLUTION, PERSPECTIVES**

FEBRUARY 11-12,2021

JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal

ISSN: 2581-4230 | Journal Impact Factor 7.232

www.journalnx.com

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag`allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to`g`risida” PF 5975-son 26.03.2020.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oily Majlisga qilgan murojaatnoma matni 29-dekabr.
3. A O`lmasov. A Vahobov Iqtisodiyot nazariyasi T-2014.